



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dिल्фуза Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmizro	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbasovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startup ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diyagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	



Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	
Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	

EVENT TA'LIM TEKNOLOGIYASI VOSITASIDA TALABALARNING O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri – event (voqeaviy) ta'lim texnologiyasining mazmuni, uni oliy ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari hamda ushbu texnologiya asosida talabalarning o'quv faolligi va ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari tahlil etilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajribalar misolida event texnologiyasining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: event texnologiyasi, ta'lim samaradorligi, talaba faolligi, interfaol metodlar, ta'lim sifati.

Abstract: This article examines the essence of one of the modern educational technologies—event-based learning technology—its potential application in higher education, and ways to enhance students' learning engagement and the effectiveness of the educational process through this technology. In addition, the effectiveness of event-based learning technology is scientifically substantiated through examples of international and local practices.

Key words: event technology, educational effectiveness, student engagement, interactive methods, quality of education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание одной из современных образовательных технологий – event-технологии (событийной технологии обучения), возможности её применения в процессе высшего образования, а также пути повышения учебной активности студентов и эффективности образовательного процесса на основе данной технологии. Кроме того, на примере зарубежного и отечественного опыта научно обосновывается эффективность event-технологии.

Ключевые слова: event-технология, эффективность образования, активность студентов, интерактивные методы, качество образования.

KIRISH

Zamonaviy ta'limda interfaollik, amaliyotga yaqinlik va talabani markazga qo'yish prinsiplariga asoslangan yondashuvlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, XXI asrda ta'lim tizimi faqat bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga, uni hayotga tayyorlashga xizmat qilishi kerak. Bu borada event (voqeaviy) ta'lim texnologiyasi o'quv jarayonini voqelik, tajriba va faoliyat bilan uyg'unlashtirgan holda tashkil etish imkonini beradi ^[1]. Mazkur yondashuv talabalarning o'quv motivatsiyasini oshiradi, ularni faol subyekt sifatida jarayonga jalb etadi, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni shakllantirib, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bu yo'nalishda davlat darajasida olib borilayotgan islohotlar, ta'lim mazmunini yangilash va ilg'or texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tashabbuslar ham muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etish, taraqqiyotimizni yangi bosqichga ko'tarish – avvalo, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallagan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan insonlarni voyaga yetkazishga bog'liq" (2021-yil, ta'lim sohasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi).

Event ta'lim texnologiyasi aynan shunday insonlarni tayyorlashga xizmat qiladigan zamonaviy yondashuv bo'lib, u orqali talabalarning o'quv faolligini oshirish, ularda hamkorlikda ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Shuningdek, ushbu texnologiya o'zining hayotga yaqinligi bilan o'quv jarayonini talabalar uchun qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etish imkonini beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida o'zining amaliy yo'naltirilganligi va talaba shaxsini rivojlantirishdagi samaradorligi bilan ajralib turadigan yondashuvlardan biri event (voqeaviy) ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Event ta'lim texnologiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. **Reallikka yaqin sharoitlarda ta'limni tashkil etish.** Ta'lim voqelik bilan bog'langan holda tashkil etiladi. Talabalar hayotiy va kasbiy muammolarni modellashtirilgan vaziyatlar orqali hal qiladilar, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.
2. **Talabalarni faol subyekt sifatida jalb etish.** Ushbu texnologiyada talabalar tayyor bilimni egallovchi emas, balki uni izlovchi, muammolarni hal qiluvchi va tahlil qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladilar. O'qituvchi esa ularning faoliyatini yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi.
3. **Guruhli va mustaqil ishlashga rag'batlantirish.** Event ta'lim guruhlarda ishlashni rag'batlantiradi, bu esa hamkorlikda o'rganish, fikr almashish va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har bir ishtirokchiga individual yondashuv va uning mustaqil fikrlashi ham qo'llab-quvvatlanadi.
4. **Refleksiya va tahlil jarayonlariga urg'u berish.** Har bir mashg'ulotdan so'ng refleksiya jarayoni tashkil etiladi – talabalar o'z faoliyati, qabul qilgan qarorlari va erishgan natijalarini tahlil qiladilar, xatolardan saboq chiqaradilar hamda kelgusidagi harakatlarini rejalashtiradilar [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Event ta'lim texnologiyasining samaradorligi shundaki, u o'quv jarayonini standart va bir xildagi shakldan chiqarib, hayotga yaqin, dinamik hamda faoliyatga yo'naltirilgan shaklga keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, ularni bilim izlashga, muammolarni hal qilishga undaydi va kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Event texnologiyasining o'qish samaradorligiga ta'siri shundaki, u o'quv jarayoniga yangicha yondashuv olib kirib, talabalarning o'qish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu texnologiya asosida tashkil etilgan darslar nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham imkon yaratadi. Shu bois event texnologiyasi ta'lim jarayonining sifati va natijadorligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi [3]. Bundan tashqari, event texnologiyasi talabalarda o'z-o'zini anglash va baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir darsdan so'ng talabalar o'z faoliyati va natijalarini tahlil qilib, kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlarni aniqlaydilar. Bu esa ularning shaxsiy o'sishi va mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi. Refleksiya jarayoni orqali talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish yo'llarini aniqlaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ta'lim sohasida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash borasida jahon miqyosida katta tajriba to'plangan. Xususan, event ta'lim texnologiyasi xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib, uning samaradorligi ko'plab mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Germaniya va Janubiy Koreyada muayyan tajribalar asosida e'tirof etilgan. AQSHda event texnologiyasi doirasida "case study" – real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish metodidan keng foydalaniladi. Bunda talabalar turli murakkab vaziyatlarni o'rganib, ularni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantiradilar. Shuningdek, konferensiyalar, seminarlar va loyiha ishlarini tashkil etish orqali talabalarning faolligi oshiriladi hamda bilimlarni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Germaniya ta'lim tizimida esa event texnologiyasi doirasida interaktiv o'quv mashg'ulotlari, seminarlar va amaliy loyihalardan keng foydalaniladi. Bunda, ayniqsa, guruhda hamkorlikda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Janubiy Koreya ta'lim tizimida ham innovatsion metodlar, jumladan, event ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning ijodkorlik va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida qo'llanilmoqda [4].

O'zbekiston ta'lim tizimida esa event ta'lim texnologiyasini joriy etish hali boshlang'ich bosqichda bo'lsa-da, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida mazkur yondashuvdan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Toshkent davlat pedagogika universiteti, Namangan davlat universiteti va boshqa bir qator oliy ta'lim muassasalarida pedagogika, iqtisodiyot hamda axborot texnologiyalari yo'nalishlarida event texnologiyasi asosida darslar va loyihalarni tashkil etish tajribasi shakllanmoqda. Mazkur yondashuv talabalarning o'quv faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadbirlar va seminarlar tashkil etilmoqda. Bu borada amaliyot va nazariyani uyg'unlashtirish, pedagoglar malakasini oshirish hamda innovatsion o'quv-uslubiy majmualarni



yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, event texnologiyasini mamlakatimizda kengroq joriy etish uchun ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ularni O'zbekiston ta'lim muhitiga moslashtirish va samarali pedagogik metodlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki yosh avlodning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, event ta'lim texnologiyasi zamonaviy ta'lim talablariga mos, talaba markazidagi interfaol yondashuv bo'lib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyani oliy ta'lim tizimida kengroq qo'llash, o'qituvchilarning mazkur yo'nalishdagi malakasini oshirish hamda metodik ta'minotni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Event texnologiyasidan foydalanish talabalarining bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anvarova N., Islomova M. Event texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati // Pedagogika va psixologiya. – 2021. – 12(2). – B. 87–93.
2. Bag'irov S. Ta'limda zamonaviy innovatsiyalar: event texnologiyasi // Ilmiy axborotnomalar. – 2022. – 6(4). – B. 112–118.
3. Davronov R. Event texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish // Pedagogik texnologiyalar jurnali. – 2020. – 4(1). – B. 34–39.
4. OECD. Ta'lim va ko'nikmalar kelajagi – 2030-yildagi istiqbollar. – Parij: Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, 2020.
5. Yun S. Kim, Park H. J. Janubiy Koreyada ta'lim innovatsiyasi: ilg'or texnologiyalar va metodlar. – Seul: Ta'lim vazirligi nashriyoti, 2018.
6. Muhammadjonov X. Oliy ta'limda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya va pedagogika markazi, 2023.
7. Jononov Sh. Event texnologiyasi asosida dars tashkil etish tajribalari // Pedagogik izlanishlar. – 2020. – № 2. – B. 33–36.
8. Qahramonova M. Talabalar bilimini oshirishda "event" metodlarining o'rni: oliy ta'lim muassasalari uchun uslubiy qo'llanma. – 2021.
9. Solihov B. Yangi pedagogik texnologiyalar va ta'limda innovatsiyalar. – Samarqand: SamDCHTI, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.